



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

TIL TIZIMI VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI

Gayubova Komila Anvarovna,
katta o'qituvchi,

Yulanova Nargiza Davlatovna,
katta o'qituvchi

Hozirgi kunda tilning ma'lum elementlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan tizim va uning tarkibiga kirgan har qanday birlik ma'lum tuzilishga ega ekanligi barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etildi. Tilshunoslikda tilni tizim sifatida o'rganishning joriy qilinishi tadqiqotchi uchun yangidan-yangi imkoniyatlar yaratdi. Tizim tilshunoslik nuqtai nazaridan har qanday lisoniy belgi ikki xil xususiyatga ega. Ularning birinchisi mutlaq xususiyat bo'lib, tizimga kirgunga qadar ham lisoniy belgida mavjud bo'ladi. Bu xuusiyatlar bevosita kuzatish bosqichida shu belgining o'ziga mansub fizik-fiziologik xossasida ko'rinish turadp. Lisoniy belgining ikkinchi xususiyati esa faqat sistemada bir lisoniy belgining ikkinchi lisoniy belgiga munosabati orqali aniqlanadi. Predmet o'zining xususiyatlaridan tashqarida mavjud bo'limganidek, uning xususiyati ham bu predmetning boshqa predmet bilan munosabatidan tashqarida yashay olmaydi. Masalan, yerning tortish quvvati shu predmetning o'ziga xos xususiyati. Lekin bu predmetning tortishi uchun boshqa predmet bo'lmasa, uning tortish xususiyati «yashirin»ligicha qolaveradi.

An'anaviy tilshunoslik lisoniy belgining faqat mutlaq xususi-yatlarini tan olgan holda, nisbiy xususiyatini nazardan soqit qildi. Lisoniy ob'ektlarning faqat mutlaq xususiyatgagina emas, balki nisbiy xususiyatga ham ega bo'lishining tan olinishi hozirgi tnlshunoslikning katta yutug'i bo'ldi. Xuddi shu masala asosida hozirgi tilshunoslik an'anaviy tilshunoslikdan farq qiladi. Masalan, tovushning fizik xususiyati bilan birga uning fonologik munosabati ham mavjud.

Lisoniy birliklar tadqiqini narsa, xususiyat, munosabat dialektik kategoriyalari asosida olib borish, lisoniy belgilarni ma'lum xususiyat va munosabatlardan tashkil topgan substansional hodisa sifatida talqin etish tilshunoslikni amaliy bosqichdan



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

nazariy bosqichga ko‘tarishga olib keladi. Bu esa tilning barcha sathlarida umumiylit va xususiylik dialektikasiga tayangan holda ish ko‘rishni talab qiladi.

Agar narsalar xususiyat va munosabatlariga nisbatan birlamchi, xususiyat esa munosabatga nisbatan birlamchi ekanligini e’tirof etsak, har qanday lisoniy birlik konkret qo‘llanilishdan tashqari ham xususiyatlar majmuasi sifatida mavjud bo‘ladi. Nutq jarayonida bu xususiyatlarini saqlagan holda bittasi orqali boshqa birlik bilan munosabatga kirishadi. O‘mumiylit va xususiylik, mohiyat va xodisa dialektik kategoriyalarini, tilshunoslikda farqlash uchun til va nutq tushunchalari kiritildi. Tilning barcha sathlarida til va nutq hodisalarini farqlash bugungi tilshunoslikning muhim vazifa-laridan biridir.

Fonologik va morfemik sathlarda til birligi sifatida fonema va morfemaning ajratilishi hech kimda shubha tug‘dirmaydi. Lekin uning talqini masalasida darslik va qo‘llanmalarda izchillik yetishmaydi.

O‘qitish amaliyotida talabalardan matn tarkibidagi birliklarning qanday fonemalardan va morfemalardan tashkil topganligini aniqlash talab qilinadi. Xususan, *toshni* so‘zi nkki morfemaning, birinchi morfema esa uch fonemaning sintagmatik munosabatidan tashkil topgan bir butunlik ekanligi aniqlanadi. Natijada til va nutq birliklari qorishtiriladi.

Til birliklarining substansional talqini ularning ikkilangan, ziddiyatli xususiyatga ega ekanligini e’tirof etadi: bir tomonidan, u bir necha xossalardan tashkil topgan va nutq jarayoniga qadar imkoniyat tarzida bo‘lgan umumlashma, ikkinchi tomonidan, bevosita kuzatish bosqichida nutq jarayonida variantlar orqali namoyon bo‘ladi. Fonologik sathdan yuqori sath birliklari ikki tomonlama xususiyatga — shakl va ma’no birligiga ega. Shuning uchun ham ma’noli birliklar variantlari fonema variantlariga nisbatan murakkabroq bo‘ladi: ham shakliy, ham mazmuniy variantlarga ega bo‘ladi. Xususan, jo‘nalish kelishigi morfemasi nutqda -ga, ~ka, -ka, -ta, -a singari shakliy variantlar orqali hamda yo‘nalish, evaz, atash, maqsad, sabab kabi mazmuniy variantlar orqali namoyon bo‘ladi.

Tizim tilshunoslik nuqtai nazaridan til bir necha sathlardan iborat bo‘lib, har qaysi sath birliklari o‘zaro sintagmatik va paradigmatic munosabatga kirishadi. Turli sathga mansub bo‘lgan birliklar hech qachon bunday munosabatga kirisha olmaydi. Bir butunlik doirasida fonema bilan morfemaning, morfema bilan so‘zning



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

sintagmatik munosabatga kirishuvi mumkin emas. Chunki ular turli sath birliklaridir. Lekin o‘zbek tilshunosligiga doir juda ko‘p ishlarda butunlik ichidagi elementlarning sintagmatik munosabatidagi bir sathlilik prinsipiga amal qilinmayapti.

YOKI so‘z tarkibi yuzasidan tahlil o‘tkazilayotganda, talabalardan o‘zakning qanday so‘z turkumi ekanligini aniqlash talab etiladi. Afsuski, bu nazariy jihatdan qo‘pol xatodir. Chunki o‘zak, affiks morfemik sath birliklari bo‘lsa, ot, sifat kabi tushunchalar morfologik sath birliklaridir. Morfologik sath birliklari morfema variantlarining o‘zaro sintagmatik munosabatidan tashkil topgan va ulardan tamomila yangi sifatga ega bo‘lgan butunlikdir. Morfema so‘z uchun material bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ot, sifat kabi so‘z turkumlari bilan o‘zak tushunchasining yonma-yon qo‘yilishi va ot o‘zak, sifat o‘zak deb nomlanishi mumkin emas. Chunki o‘zak funksional birlik—so‘z turkumi emas, balki uning tarkibiga kiruvchn konstruktiv birlikdir.

Yuqoridagi holatda so‘zning morfema tuzilishi bilan so‘z yasalish tuzilishi ham qorishtiriladi. So‘z yasalish tuzilishi doimo ikki qismdan — yasashga asos va yasovchi vositadan iborat ekanligi o‘zbek tilshunosligida to‘g‘ri belgilangan.

So‘z yasalishi tuzilishida yasashga asos qismning qanday so‘z turkumiga mansubligi haqida fikr yuritish to‘g‘ri. Chunki yasovchi vosita qo‘shilib yangi so‘z yasalgunga qadar ham shu tilning funksional lug‘aviy birligi sifatida mavjud bo‘ladn. Lekin so‘z yasalish tuzilishi haqida gapirganda, o‘zak tushunchasi haqida fikr yuritib bo‘lmaydi. Ular boshqa-boshqa tuzilish birliklaridir.

Morfologik sath birligi bo‘lgan so‘z ham o‘zaro munosabatda bo‘lgan so‘z shakllarining umumlashmasi hisoblanadi. U bevosita kuzatish bosqichida so‘zning ma’lum shakli orqali namoyon bo‘ladi. Morfologik birliklarning substansional talqini so‘z shaklli o‘rtasidagi yashirin aloqalarni belgilash orqali grammatik ma’no mohiyatini ochishdan iborat bo‘lishi kerak. Buning uchun grammatik shakl va grammatik ma’no paradigmasini, paradigma a’zolari o‘rtasidagi birlashtiruvchi va farqlovchi belgilarini aniqlash lozim bo‘ladi.

Sintaktik sathning asosiy birligi gapdir. Gap konkret holda jumlalar orqali namoyon bo‘ladigan umumlashma sanaladi. Gapning gap bo‘lmagan boshqa til birliklaridan farqi predikativlikdir. Gapning asosiy belgisi predikativlik ekanligi barcha



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

tilshunoslar tomonidan tan olinsa ham, lekin predikativlik mohiyatiga yondashuv bir xil emas. Hozirga qadar predikativlikning ikki talqini mavjud: 1) predikatning sub'ektga munosabati (kesimning ega bilan munosabati); 2) gapdan anglashilgan mazmunning ob'ektiv borliqqa bo'lgan munosabati. Bu ikki talqin gapning umumlashma sifatida tasnifida ham o'z izini qoldirishi kerak. Birinchi talqinda gapning predikativ a'zolari sifatida o'zaro predikativ munosabatda bo'lgan ega va kesim qaraladi hamda ular gap sintaktik tizimida asosiy bo'laklar hisoblanadi.

Predikativ munosabatda bo'lgan bo'laklarning sintaktik ifodalanishiga muvofiq gaplar bir sostavli (bir bosh bo'lakli) va ikki sostavli (ikki bosh bo'lakli) gaplarga bo'linadi. Predikativ munosabatga kirishgan har ikki a'zo sintaktik ifodasiga ega bo'lsa, ikki sostavli (ikki bosh bo'lakli), faqat bittasi sintaktik ifodaga ega bo'lsa, bir sostavli (bir bosh bo'lakli) gap hisoblanadi.

Predikativlikning ikkinchi talqini bo'yicha gapning, mazmuniy tuzilishi ma'lum munosabat bilan bog'langan predmetlar sistemasidir. Bunga muvofiq, *talaba kitobni o'qidi* jumlasining mazmuniy tuzilishi o'zaro ma'lum munosabatda bo'lgan ikki predmetni o'z ichiga oladi. Birinchi predmet ega pozitsiyasidagi *talaba* oti orqali, ikkinchi predmet to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *kitobni* oti orqali, ular o'rtasidagi munosabat esa kesim pozitsiyasidagi *o'qidi fe'li* orqali ifodalangan. Ikkinchi talqinga muvofiq, predikativlik shakliga ega bo'lgan har qanday predikat predikativlikni bildiradi. Shuning uchun ham har qanday jumlaning asosida predikativlik shaklidagi predikat—kesim yotadi. Ega, to'ldiruvchi, hol pozitsiyasida kelgan bo'laklar esa kesim pozitsiyasidagi predikatning bo'sh o'rinalarini to'ldiruvchi aktantlar yoki argumentlar sanaladi. SHUNGA ko'ra predikativlikning ikkinchi talqinida gaplarni bir sostavli va ikki sostavli tiplarga ajratishga hech qanday asos ham, ehtiyoj ham bo'lmaydi. Hozirgi o'zbek tilshunosligida predikativlikning ikkinchi talqini tobora ustunlik qilib borayotgan ekan, gaplarni sostavlarga ajratishga ham hech qanday zarurat yo'q.